

IQTISODIYOT FANLARI / ECONOMIC SCIENCES

UO‘K 338.45:004

**MINTAQADA XALQ HUNARMANDCHILIK SOHASINING RIVOJLANISHINI
TREND MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH****Norqobilova Feruza Abduhomidovna** - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PHD)

Qarshi mihandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati xalq hunarmandchilik sohasini rivojlantirish va shu asosida oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali ish bilan band qilish masalalarini ekonometrik modellashtirishning trend modeli asosida baholash yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xalq hunarmandchilik, raqamlashtirish, raqamli texnologiya, trend model, ekonometrika, prognoz.

UDK 338.45:004

**ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ОТРАСЛИ НАРОДНЫХ ПРОМЫСЛОВ РЕГИОНА НА
ОСНОВЕ ТРЕНДОВЫХ МОДЕЛЕЙ****Норкobilова Феруза Абдухомидовна** - доктор философских наук по экономическим наукам (PhD)

Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие народных промыслов Кашкадарьинской области и оценка вопросов занятости на основе трендовой модели эконометрического моделирования путем поддержки на этой основе семейного предпринимательства.

Ключевые слова: народные промыслы, цифровые технологии, трендовая модель, эконометрика, прогноз.

UDC 338.45:004

**ASSESSMENT OF THE DEVELOPMENT OF FOLK CRAFTS IN THE REGION
BASED ON TREND MODELS****Norgobilova Feruza Abduhomidovna** - Doctor of Philosophy in Economic Sciences (PhD)

Karshi engineering-economics institute, Karshi city, Uzbekistan

Abstract. It is explained by the scientific justification of methodological approaches to the assessment of the role of family entrepreneurship in the development of folk crafts in the region, as well as the possibility of using them to improve the organizational and institutional basis of regulating family entrepreneurship.

Keywords: institutional, digital, technology, trend, model, econometric, forecast, results, information, system, endogenous, exogenous.

Kirish

O'zbekistonda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida so'nggi yillarda mamlakatimizdagi xalq hunarmandlar soni 8 barobarga, shogirdlar 9 barobarga ko'payib, sohada band bo'lganlar soni 250 ming nafarga yetdi.

Ayniqsa, mintaqalarda xalq hunarmandlarining amaliy san'atini yanada rivojlantirish asosida, mintaqalarda milliy xalq hunarmandlarining kataloglarini yaratish, xalqaro ko'rgazma hamda tanlovlarni tashkil etish va xalq hunarmandlar turizm reyestriga kiritish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mahallabay ishlash orqali oilaviy tadbirkor hunarmandlarda foydalanilmayotgan imkoniyatlarni to'la ishga solish, hunarmandlar o'rtasida o'zaro tajriba almashish tizimini yanada kengaytirish, hunarmandchilik mahsulotlari uchun yangi bozorlarni topish borasida qo'shimcha choralar ko'rish talab etilmoqda.

Mintaqa aholisini xalq hunarmandchilik sohasiga jalb qilish tizimini takomillashtirish, "usta-shogird" an'analari asosida mahallalarda yoshlarga hunar o'rgatish va bandligini ta'minlash, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish hamda hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha amalda bir qancha islohotlar izchil davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-son va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-son qarorlari qabul qilindi, ushbu qarorlar mamlakatimiz aholisini ish bilan band qilish, ularning loyihalarini moliyalashtirish, hunarmandchilik sohasini rivojlantirish va hunarmandlarimiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar, yillik 14 foiz stavkada "Hunarmand" uyushmasi a'zolariga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va xom-ashyo materiallarni xarid qilish, hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari, "usta-shogird" maktablarini tashkil etish, uy-muzeylar va ustaxonalar qurish yoki shu maqsadlarda bino va inshootlar sotib olish uchun 3 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 18 oygacha muddatga ajratilishi nazarda tutilganligi, xalq hunarmandchiligi sohasida ijobiy o'zgarishlarning oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Xalq hunarmandchiligini raqamlashtirish bu zamonaviy raqamli hunarmandchilikning rivojlanishini bugungi kunda kuzatilishi mumkin bo'lgan shaklidir. Mintaqada xalq hunarmandchiligi rivojlanishini trend modellar asosida baholash va xalq hunarmandchiligini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan holatlar hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Xalq hunarmandchiligini rivojlantirishning iqtisodiy muammolari va mintaqalarda xalq hunarmandlarining amaliy san'atini yanada rivojlantirish asosida mintaqalarda milliy xalq hunarmandchiligini raqamlashtirish masalalarida xorijlik iqtisodchi olimlardan Basco, Banalieva, Eddleston, Zellweger Steier tomonidan, milliy iqtisodiyotda oilaviy hunarmandchilikning ijobiy tomonlari shuningdek korporativ boshqaruv va hunarmandchilikning rivojlanishiga institutsional yondashuv nuqtai nazaridan, ularning o'ziga xos tomonlari o'rganilgan.

Ushbu yo'nalish bo'yicha respublikamiz olimlari A.O'lmasov, D.T.Yuldashev, O.M.Pardayeva va boshqalar o'z ishlarida oilaviy biznes va hududlar rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy modeli xalq hunarmandchiligining ijobiy tomonlarini tadqiq etadilar. Bunda asosiy e'tibor oilaviy biznes asosida milliy hunarmandchilikka qaratilgan bo'lib, xalq hunarmandchiligini raqamlashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy tabiati nuqtai-nazaridan ochib berilmagan.

Ayni paytda xalq hunarmandchiligi sohasida raqamlashtirish va istiqbollarni belgilash borasida olib borilayotgan ishlar ham masalaga jiddiy yondashgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishida xalq hunarmandchiligi sohasini rivojlantirishning istiqbollarni belgilashda matematik modellashtirish usulidan keng foydalanilgan holda korrelyatsion tahlilida trend modellarining regression tahlil natijalari ko'ra empirik modeli ishlab chiqildi.

Tahlillar va asosiy natijalar

Hunarmandchilik korxonalari faoliyatini rivojlanishini trend modellar asosida baholash bir nechta to‘plam elementlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni solishtirish imkonini beradi. Shu boisdan tadqiqotimizda Qashqadaryo viloyati hunarmandchilik korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmini prognoz qilish uchun ekstrapolyatsiya usulini qo‘llab trend modellari orqali aniqlashda quyidagi bosqichlarni amalga oshirish lozimligi keltirilgan:

- juft va xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlarini aniqlash bilan modelda qatnashadigan omillar tanlanadi;

- regressiya tenglamalarining parametrlarini aniqlanadi;

- tuzilgan ekonometrik modelni statistik ahamiyatliligini tekshiriladi. Ekonometrik modelni ishonchliligi bir necha mezonlar, ya‘ni regressiya koeffitsiyentlar ahamiyatlilik darajasini Studentning t-mezone bo‘yicha, ekonometrik modelning ahamiyatliligi Fisherning F-mezone yordamida, modelda avtokorrelyatsiyaning mavjudligi Darbin-Uotson mezone bo‘yicha, omillarning umumiy ta‘siri R²-determinatsiya koeffitsiyenti bo‘yicha baholanadi;

- hosil qilingan eng optimal trend modeli orqali prognoz natijalari hosil qilanadi. Tuzilgan ekonometrik modelni o‘rganilayotgan jarayonga mos keluvchi eng yaxshi ekonometrik model deb hisoblasa bo‘ladi va keyinchalik bu model asosida korxonaning asosiy ko‘rsatkichlarini kelgusi yillarga prognoz qilish mumkin.

Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik faoliyatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlarni quyidagicha belgilab olindi:

hunarmandchilik korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi (mlrd so‘m)- Y;

kichik biznes va tadbirkorlikda hunarmandchilik faoliyati bilan band bo‘lganlar ulushi (foizda) -X₁;

hunarmandchilik faoliyatiga kiritilgan investitsiyalar (mln so‘m)- X₂;

faol holatdagi hunarmandchilik korxonalari soni (ming ta) -X₃;

hunarmandchilik xizmatlari hajmi (mln so‘m)-X₄.

Bu omillarning qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishning ekonometrik modeli sifatida chiziqli regressiya tenglamasini aniqlaymiz. Bizning holimizda to‘rt omilli chiziqli regressiya tenglamasining umumiy ko‘rinishi quyidagicha yoziladi:

$$H = a_0 + a_1X_1 + a_2X_2 + a_3X_3 + a_4X_4 \tag{1}$$

1-jadvaldan foydalanib ifodani quyidagicha yozamiz:

$$H = \underset{-2,787}{-617,94} + \underset{3,886}{286,96} X_1 - \underset{-2,145}{0,871} X_2 - \underset{-1,543}{833,088} X_3 + \underset{7,266}{5,525} X_4 \tag{2}$$

(2)dan ko‘rish mumkinki, 3-omil bo‘yicha aniqlangan qiymatlarni tahlil etilsa, X₃ ning oldidagi koeffitsiyenti ahamiyatsiz (|-1,543|<2,1); modelning chiziqli bo‘lish gipotezasi faqat shu omil bo‘yicha bajarilmaydi (p=0,14>0,05). Qolgan barcha holatlarda sifatli empirik model qurilganligini ta‘kidlash mumkin. U holda (2) ning adekvat holatini quyidagicha yozib olamiz

$$H = -617,94 + 286,96 X_1 - 0,871 X_2 + 5,525 X_4$$

Shu o‘rinda (3) modelda avtokorrelyatsiya mavjud emasligini tekshirish maqsadga muvofiq, u holda uni Darbin-Uotson mezone bo‘yicha tekshiramiz:

$$DW = \frac{\sum_{t=2}^T (e_t - e_{t-1})^2}{\sum_{t=1}^T e_t^2} = \frac{\sum_{t=2}^T e_t^2 + \sum_{t=2}^T e_{t-1}^2 - 2\sum_{t=2}^T e_t e_{t-1}}{\sum_{t=1}^T e_t^2} = 2 - 2 \frac{\sum_{t=2}^T e_t e_{t-1}}{\sum_{t=1}^T e_t^2} \approx 2(1 - \rho_1)$$

bu yerda, ρ₁ - birinchi tartibdagi korrelyatsiya koeffitsiyenti.


Bu mezon bo'yicha ijobiylik DW ning 2 atrofidagi qiymati bilan izohlanadi. Tanlangan omillar bo'yicha birinchi tartibdagi korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblaymiz, ya'ni $p_1 = -0,2368$. U holda $DW = 2,4735$ tenglik o'rinli bo'ladi. Bu esa modelning sifati yuqori ekanligini bildiradi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar asosida chiziqli empirik modelni qurish

Regressiya statistikasi					
Ko'plikda R	R-kvadrat	Normallashtirilgan R-kvadrat	Standart xatolik	Kuzatishlar	
0,999808683	0,999617403	0,999515377	232,9856526	20	
Dispersiyani tahlil qilish					
	df	SS	MS	F	Ahamiyati F
Regressiya	4	2127363969	531840992,3	9797,684549	0,00000000
Qolgan	15	814234,7149	54282,31432		
Natija	19	2128178204			
	Imkoniyatlari	Standart xatolik	t-statistika	P-qiyamat	
Y-natija	-617,9393807	221,7528035	-2,786613612	0,013828061	
O'zgaruvchan X 1	286,9639174	73,83926673	3,886332166	0,001461415	
O'zgaruvchan X 2	-0,871256267	0,406124698	-2,145292498	0,048707349	
O'zgaruvchan X 3	-833,0880684	539,9548602	-1,542884655	0,143689759	
O'zgaruvchan X 4	5,524631658	0,760329855	7,266098552	0,000000276	

(3) model bo'yicha Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik korxonalari ishlab chiqarish iqtisodiy o'sishining prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash uchun bu modelning ekzogenlari uchun trend modellarni aniqlaymiz. Buning uchun MS Excel dasturidan foydalanamiz:



1-rasm. Kichik biznes va tadbirkorlikda hunarmandchilik faoliyatida band bo'lganlar ulushi (foizda)

Hunarmandchilik faoliyatiga kiritilgan investitsiyalar o'zgarish jarayonini prognozlash uchun hisoblangan trend modellari 1-rasmda ko'rsatilgan. Hosil qilingan trend modeli natijalari tahliliga ko'ra, bu eksponentsial model sifati ancha yuqori.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, kutilayotgan natija mamlakatimizda qadimdan mavjud ammo yaqin yillar davomida yo'qolib borayotgan hunar turlarini tiklash va rivojlantirish, milliy merosimizni avloddan-avlodga yetkazib berish, aholi va xorijiy mamlakatlariga milliyligimizni, urf-odatlarimizni

an'analarimizni, hunarmandchilik mahsulotlari orqali anglatishimiz, respublikamizning rivojlanmagan olis tog'li hudud aholisini ham ish bilan band qilish yuqori darajadagi texnologiyalarsiz ham mavjud xom-ashyolar (jun, ipak, teri, tuproq, yog'och, temir va b.) orqali hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqish, daromadga ega bo'lish imkoniyatini yaratib berishdir.

Adabiyotlar

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-55-son // <https://lex.uz>
- [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda «Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-77-son Qarori. // <https://lex.uz/docs/5807559>
- [3] Basco, R. Family business and regional development - A theoretical model of regional familiness. Journal of Family Business Strategy (2015), <http://dx.doi.org/10.1016/j.jfbs.2015.04>
- [4] Banalieva E.R., Eddleston K.A., Zellweger T.M. When do family firms have an advantage in transitioning economies? Toward a dynamic institution-based view // Strategic Management Journal. – 2015. –T. 36. -№ 9.
- [5] O'lmasov A. Oila iqtisodiyoti. Toshkent – "Mehnat"- 1998.;
- [6] Pardayev M.Q. Oila xo'jaligi iqtisodiyoti va tadbirkorligi. Samarqand 2001 y.;
- [7] Norqobilova. F. A. International scientific and practical conference // Iqtisodiy erkinlik indekisi hunarmandchilik sohasini rivojlantirishdagi roli (zenodo.org), 2023. – p 255-257
- [8] Arens R. Complex processes for envelopes of normal noise // IRE Trans. Inform. Theory, Sept. 1957, vol. IT-3, pp. 204-207.
- [9] Mukhitdinov Khudoyar Suyunovich1, Norqobilova Feruza Abdihamidovna2. // Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region / Journal of Pharmaceutical Negative Results: Volume 13: Special Issue 9: 2022.
- [10] F. A Norqobilova. // Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini modellashtirishda tizimli tahlil qilish, sintezlash va optimallashtirish / Vol. 1 No. 2 (2021): International journal of conference series on education and social sciences. (Online) p. 224-228.